



BALANDCHAQIR QISHLOG‘I SHEVASIDA KO‘PLIK KATEGORIYASI

Murodova Shahzoda Dilshod qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada qarluq lahjasidava tadqiqot hududi shevasida uchraydigan ko‘plik shakllari haqida so‘z boradi. O‘zbek shevalarida uchraydigan ko‘plik shakllari adabiy tildagi ko‘rinishidan ko‘p variantga egaligi bilan xarakterlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Ko‘plik, sheva, indifferent, semantika, qarluq.*

Avvalo, biz sheva xususiyatlarini o‘rgangan hudud haqida ma‘lumot keltirishni joiz deb bildik. Balandchaqir qishlog‘i Jizzax viloyatidagi Yangiobod tumanining markazi hisoblanadi. Qishloq tog‘ yonbag‘rida joylashgan. Qishloq 1999-yil apreldan beri tumanning ma‘muriy markazidir. Aholisining soni 3 mingdan ortiq bo‘lib, ular, asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadilar. Balandchaqir qishlog‘i 3ta yirik mahalladan tashkil topgan. Ular: Varqin, Balandchaqir va Parkat. Balandchaqir qishlog‘i nomining kelib chiqishi haqida turlicha rivoyat, afsonalar uchraydi. Mutaxassislar fikricha, “chaqir” leksemasining “toshloq”, “qumloq” ma‘nolarini anglatadi. Dastlab, qishloq aholisi bir joyda yashashgan va qishloq nomi Chaqir bo‘lgan, vaqt o‘tishi bilan aholi suv bor joyga ko‘chishga harakat qiladi va shuning natijasida aholining yarmi ikkinchi bir joyda yashay boshlaydi. Bu qishloq hozirgi Balandchaqir qishlog‘idan 8 km uzoqlikdagi Patkichaqir qishlog‘idir. Aholi o‘rtasida “qayerliksiz?” deb so‘ralganida “Chaqirdan” deb javob berishganda, “Qaysi biridan, pasdagidanmi, balanddagidanmi?”deb qayta so‘rashgan. Shunda u odam pastdan bo‘lsa Pastkichaqir, balanddan bo‘lsa Balandchaqirdan deya javob bergan. Shu bilan bu atamalar qishloq nomiga aylanib ketgan.

Qishloq aholisining shevasi qarluq lahjasiga mansub bo‘lib, biz bu hudud shevasining ko‘plik kategoriyasini tadqiqot obyektini deb oldik.

O‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasining morfologik ko‘rsatkichi faqat bitta -lar affiksi bo‘lib, uning fonetik variantlari yo‘q. Ma‘lumki, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar hamda eski o‘zbek tilidagi otlardagi grammatik ko‘plik ma‘nosi, asosan, **-lar//lär** affiksi orqali ifodalangan. Hozirgi turkiy tillarda ham **-lar** affiksining singlarmonizm, assimilyatsiya, undosh tovushlarning tushirilib talaffuz etilishi kabi fonetik qonuniyatlar tufayli vujudga kelgan ikki va undan ortiq fonetik variantlari mavjud. O‘zbek shevalarida **-lar** affiksining **-lar//lär//lä** kabi variantlari bo‘lib, yagona **-lar** ko‘rsatkichi qo‘llanadigan birorta sheva yo‘q. Bu jihatdan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek shevalari qadimgi turkiy hamda eski o‘zbek va hozirgi turkiy tillarga ancha yaqin turadi. Qarluq lahjasiga oid shevalarda ko‘plik affiksi, asosan, **-lä, -nä, -lär//lar** tarzidadir. Egallik affikslaridan oldin doim **-lär** qo‘llangani va



singarmonizm qonuni yo'qligi sababli bu shevalarda **-lä//-lär//-nä** singari "yumshoq" affikslarning qo'llanilish doirasi keng.

O'zbek shevalaridagi kishilik olmoshlarining **-lar** affiksi bilan qo'llanishi alohida ahamiyatga sazovor:

a) O'zbek shevalarida o'zbek adabiy tilida uchramaydigan **mennär//sällär //sällä//sännär//bizä//bizlä//bizzär//silär//silä//sizä//sizär//ula//ulä// ullar** kabi kishilik olmoshlarining ko'plik shakllari mavjud.

b) Qipchoq va qarluq shevalarining ba'zilarida uchraydigan **-sännär//sällär// -sällä** formasi, asosan, sansirab gapirishda qo'llanib, hurmatsizlik ma'nosini anglatadi.

Umuman, o'zbek shevalarida adabiy tildagi **-lar** affiksining 31ta to'liq va qisqargan ko'rinishlari mavjud ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot obyektida olingan hudud shevasi, yuqorida ta'kidlanganidek, qarluq lahjasiga mansub bo'lib, hudud vakillari nutqida adabiy tildagi **-lar** affiksining **-lär//-lä** variantlari faol ishlatiladi: **mehmānlä, iščilä** kabi.

Tadqiqot obyektida kishilik olmoshlarining ko'plik shakllari qay tarzda ekanligini quyida ko'rib chiqamiz:

Sen(adabiy t.) – **sanla//sälla**;

Siz(adabiy t.) – **sizlä//silä**;

Biz(adabiy t.) – **bizlä//bizlär**;

Ular(adabiy t.) – **ulä//ulär**.

Ko'plik shakllari o'ziga xos semantikaga ega ekanligi adabiy til xususiyatlaridan ham ma'lum. Masalan, adabiy tilda ko'plik shaklidan so'ng egalik shakllari kelsa, bunday hollarda odatdagi ko'plik ma'nosi tushuniladi: **kitoblar+im=kitoblarim**. Egalik shakllaridan so'ng ko'plik shakllari kelsa, bunday holda hurmat, kamtarlik kabi ma'nolarni anglatadi: **dadam+lar= dadamlar**. Xuddi shunday ko'plik shakllari semantikasi hudud shevasi uchun ham o'rinli hisoblanadi: **täyamlä keldilä**.

Hudud vakillari nutqida yana shu holat kuzatiladiki, yoshi so'zlovchidan katta bo'lgan odamga tegishli bo'lgan barcha narsa-hodisalarga ham ko'plik shakllari qo'shib aytiladi: **äjämni pülläri, äkämni māšinäläri** kabi.

Xulosa sifatida, qarluq lahjasiga mansub ushbu qishloq shevasida ko'plik kategoriyasining bir necha shakllari mavjud ekanligi; kishilik olmoshlari bilan ko'plik shakllarining qo'llanish holatlari mavjudligi aniqlandi. Ilova sifatida hudud vakillari nutqida ishlatiladigan adabiy tildan farqli so'zlar lug'atini keltirmoqchimiz:

Tälpiq- g'ilmindi

Qatiyläš- qatiqli osh

Tüppä- xamir kesilib tayyorlanadigan ovqat

Dävüččä- hali pishib yetilmagan meva

Qirmāč- ovqat qoldig'i

Näšvāti- nokning bir turi

Kädimürt-nokning yana bir turi



Bölä-xolavachcha
Kättä dädä-amaki
Döŋ-tepalik
Qotan-qo'yxona
Ajvān-molxona
Tärtänāj-o'rgimchak
Ātašküräk-chiqindi olgich
Nānpār- chakich
Yäkändāz-ko'rpacha
Zij-chekka
Čittürrä-yozda boshga bog'lanadigan mato
Ālqindi- sovun qoldig'i
Ābdīš-qaynagan suv
Xora-ovqat ko'p yeydigan odam
Čolpī-yog'da qovuriladigan xamirni olishda foydalaniladigan jihoz
Āläkkä-olashaqshaq
Taxmān-ko'rpa yig'iladigan joy
Kömāč-kepak non
Qaznāy- omborxonona
Jäktäk-erkaklar kiyadigan uzun ustki kiyim
Nārakī-yaroqsiz sabzi
Lāčīra-non turi
Päjtävā-etik kiyishdan oldin oyoqqa boylanadigan mato
Qatqalāq- sug'orilgan yerning qotib qolgan ustki qismi
Ajri- ish quroli
Nimdz-ko'rpa qavishda ishlatiladigan katta igna
Pirmiz- sirli idish
Šipitki-supurgi
Kepäk-bug'doy qoldig'i
Qölä-qibla
Girdaj-ozgina
Zärdāb- qatiqdan ajraladigan suv
Čälāp- ayron
Halqa- sirg'a
yārāk- is
Dākä- azada o'raladigan katta oq ro'mol
Žändä- eski-tuski
Žijimāq- eskirib ketmoq
Āhī- axir